

JAMIYAT RIVOJIGA TAHDID KORRUPTSIYAGA QARSHI HAMKORLIKDA KURASHAYLIK!

Jamiyat rivojiga, adolat qaror topishiga, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'lib, sohalar yuksalishiga bevosita tahdid tug'diradigan eng xavfli illat – korrupsiyadir. Barchaga ayonki korrupsiya – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladi. Korrupsionerning yagona maqsadi davlat qonunlarini aylanib o'tib, moddiy boylikka ega bo'lishdir. Oddiy til bilan aytganda, har qanday pora olish, berish va unda vositachilik qilish, mansab vakolatidan suiiste'mol qilish va vakolatidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, mansab vakolatidan foydalanib talon-taroj qilishning barchasi bu korrupsion jinoyatlarni tashkil qiladi.

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirish, uni ildizi bilan yo'q qilish, bu boradagi huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor vazifalariga aylangan.

Aziz kombinatimiz ishchi-xodimlari!

Korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lishimiz shart. Bu illat korxonalar faoliyatiga ham jiddiy putur yetkazadi, iqtisodiy tushkunlikni keltirib chiqaradi, taraqqiyotni sekinlashtiradi, ishchi-xodimlarning kelajakka ishonchini yo'qotadi. Shuning uchun ham ushbu illatga qarshi kurashish barchamizning asosiy vazifamizga aylanishi lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurash vatanparvarlik burchimiz, vijdonimiz ishidir. Bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerak.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, barcha fuqarolarimiz qatorida sizlarning faolligingiz kuzatilmasa, korrupsiya huquqbuzarliklari, tamagirlik kabi holatlar haqida tegishli davlat idoralarini ogohlantirmasak, xabar bermasak ushbu illatdan butunlay qutilishning iloji yo'q. Korrupsiyaga qo'l urish natijasida ayrim g'arazli maqsadga ega shaxslarning bu kabi illati sababli halol va o'z mehnat faoliyatiga sodiqlik bilan sidqidildan xizmat qilib kelayotgan xodimlarning ham nomiga dog' tushishi achinarli holatlardan biridir.

Har qanday ko'rinishdagi korrupsiyaning sodir etilishida, ularning ko'payishida va o'z vaqtida barham berilmasligiga o'zimizning befarqligimiz, loqaydligimiz sabab bo'lib kelmoqda. Har bir fuqaro korrupsiya jinoyatlariga guvoh bo'lganida bunday holat haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qo'rqmasdan xabar berishi lozim. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarning davlat himoyasida bo'lishi kafolatlangan hamda bu to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan.

Qadrli metallurglar!

Korrupsiyaga qarshi kurashmasak, kimdir unga yo'l ochadi. Jim turish bu illatning tomir otishiga yordam berishdir. Korrupsiya haqida xabar berish bu adolat uchun kurash, farovonligimizni ta'minlash ekanligini barchamiz yaxshi tushunishimiz zarur.

Bu illatga qarshi kurashishda eng avvalo, barcha ishchi-xodimlar o'z huquq va burchlarini bilishlari bilan bir qatorda, unga shaxsan rioya qilishlari hamda boshqalardan ham shuni talab qilishlari kerak.

Shuningdek, har birimiz korrupsiya illatiga qarshi o'zimizda toqatsizlik va murosasizlik tuyg'usini shakllantirishimiz, xizmat vazifalarimizni halol, vijdonan, yuqori professional darajada va vakolatlarimizdan chetga chiqmagan holda bajarishimiz lozim.

Davlatimizning farovonligi, xalqimizning ertangi kuni, kelajagimiz yo'lida bir maqsad sari birlashsakkina bu illatning ildizini quritishga erisha olamiz.

Roman Garaev

“O'zmetkombinat” AJ Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari